

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yil davomida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar o'sish sur'ati dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, 2026-yil yanvar-mart oylarida ushbu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan qariyb 2,2 barobarga oshdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



So'nggi besh yil mobaynida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2024-yilda eng yuqori o'sish sur'ati – 143,9% kuzatilgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-mart oylarida ushbu ko'rsatkich 129,6%ni tashkil etdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun 2026-yil yanvar-mart oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 156,3 trln so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2025-yilga nisbatan 29,6%ga oshdi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

2026-yil yanvar-mart oylari uchun


	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2025-y.	2026-y.
Jami	156 330,4	129,6	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	15 314,7	144,8	8,7	9,8
respublika budjeti	3 947,7	118,6	2,7	2,5
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	566,3	284,0	0,2	0,4
<i>shu jumladan, mln AQSH dollari</i>	<i>45,3</i>	<i>304,0</i>	-	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	10 800,7	153,3	5,8	6,9
<i>shu jumladan, mln AQSH dollari</i>	<i>886,4</i>	<i>167,9</i>	-	-
markazlashmagan investitsiyalar:	141 015,7	128,1	91,3	90,2
korxonalar mablag'lari	20 530,6	114,8	14,8	13,1
aholi mablag'lari	8 656,4	110,3	6,3	5,6
Xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	107 578,8	133,9	66,8	68,8
<i>shu jumladan, mln AQSH dollari</i>	<i>8 841,1</i>	<i>145,7</i>	-	-
<i>shundan:</i>				
xorijiy investitsiyalar	83 697,6	159,0	43,8	53,6
<i>shu jumladan, mln AQSH dollari</i>	<i>6 881,9</i>	<i>173,1</i>	-	-
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	4 249,9	105,8	3,4	2,7

2026-yil yanvar-mart oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 15,3 trln so'mni tashkil etib, 2025-yilga nisbatan 44,8%ga oshdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 9,8%ga yetdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Respublika budjeti hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)
- [Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)
- [O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)
- [Korxonalar o'z mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)
- [Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)
- [Aholi mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

	Jami investitsiyalar, mlrd so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan %da)					
		Respublika budjeti	Korxonalar va tashkilotlar	Aholi	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qariz mablag'lari
O'zbekiston Respublikasi¹	156 330,4	2,5	13,1	5,6	75,7	0,4	2,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 990,2	2,8	30,9	5,0	57,1	-	4,2
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	7 217,5	2,8	8,7	5,0	80,6	1,7	1,2
Buxoro	13 297,5	1,4	13,4	6,0	78,7	-	0,5
Jizzax	5 772,7	4,0	16,8	6,5	72,1	-	0,6
Qashqadaryo	6 106,8	2,1	16,3	11,4	69,7	-	0,5
Navoiy	12 900,0	0,8	8,3	4,3	85,6	-	1,0
Namangan	17 869,4	1,8	8,1	3,7	81,6	-	4,8
Samarqand	11 885,4	3,0	9,5	3,5	82,2	0,1	1,7
Surxondaryo	7 667,8	2,8	8,0	8,0	79,6	-	1,6
Sirdaryo	4 541,6	4,7	12,2	2,4	73,8	1,3	5,6
Toshkent	15 790,3	5,3	17,6	7,3	66,8	0,1	2,9
Farg'ona	11 890,8	1,7	4,2	6,5	82,6	-	5,0
Xorazm	5 265,7	3,7	4,7	14,1	75,7	0,5	1,3
Toshkent sh.	25 446,9	2,2	22,1	4,1	66,1	1,3	4,2

¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

II. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchi o'rin egallaydi. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida, jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 44,5 trln so'm, yoki asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 28,5%i o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2026-yil yanvar-mart oylari uchun

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, %da	
		2025-y.	2026-y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	156 330,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13 887,5	9,7	8,9
tog'-kon sanoati	11 031,3	11,7	7,0
ishlab chiqarish sanoati	44 545,6	26,7	28,5
elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo	16 391,7	17,1	10,5
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	2 604,2	1,5	1,7
qurilish	16 813,5	7,4	10,8
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	6 782,1	2,7	4,3
tashish va saqlash	9 666,6	4,6	6,2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 133,3	1,2	2,0
axborot va aloqa	3 076,3	1,5	2,0
moliya va sug'urta faoliyati	1 261,7	0,8	0,8
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	1 420,0	0,5	0,9
ta'lim	2 587,1	1,0	1,6
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 991,4	1,8	1,3
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	831,4	0,3	0,5
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	10 910,4	7,5	7,0
boshqa faoliyat turlari	9 396,3	4,0	6,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(choraklik\)](#)

III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


2026-yil yanvar-mart oylarida jami yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 9,7 mlrd AQSH dollari yoki 118,4 trln so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

	Xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar
O'zbekiston Respublikasi²	83 697,6	10 800,7	23 881,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 497,8	421,6	1 072,1
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	4 113,5	70,5	1 633,9
Buxoro	8 665,1	342,7	1 460,4
Jizzax	2 948,0	132,8	1 078,9
Qashqadaryo	1 087,5	792,6	2 376,9
Navoiy	8 166,1	781,6	2 092,8
Namangan	11 839,9	374,1	2 376,2
Samarqand	7 663,9	325,9	1 778,2
Surxondaryo	3 020,5	837,5	2 248,1
Sirdaryo	2 697,5	131,1	521,4
Toshkent	7 537,6	334,5	2 683,6
Farg'ona	9 056,3	56,6	707,5
Xorazm	757,2	342,0	2 889,0
Toshkent sh.	13 646,7	2 212,4	962,2

² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmi qo'shgan holda

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)

IV. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2026-yil yanvar-mart oylarida jami 3 322,1 ming kv.m turar-joylar ishga (yakka tartibdagi turar joylar) tushirilib, 2025-yilga nisbatan 6,6%ga oshdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda respublika bo'yicha jami 39 km suv tarmog'i ishga tushirildi, ularning 81,3%i yoki 31,7 km qishloq joylar hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, 2026-yil yanvar-mart oylarida 1,9 km gaz tarmog'i ishga tushirildi va ularning barchasi Farg'ona viloyati hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylarda, ming kv.m	Suv tarmog'i, km	Gaz tarmog'i, km
O'zbekiston Respublikasi	3 322,1	2 153,9	39,0	1,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	165,3	75,2	-	-
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	146,8	98,1	-	-
Buxoro	313,2	160,3	-	-
Jizzax	156,1	59,8	20,1	-
Qashqadaryo	239,2	105,6	-	-
Navoiy	170,7	160,8	-	-
Namangan	280,2	188,0	-	-
Samarqand	114,3	108,9	-	-
Surxondaryo	301,3	298,6	-	-
Sirdaryo	40,4	24,2	-	-
Toshkent	458,3	370,7	-	-
Farg'ona	309,2	213,9	18,9	1,9
Xorazm	330,4	289,8	-	-
Toshkent sh.	296,7	-	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni \(yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan suv tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan gaz tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkichga shuningdek moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda texnik va gumanitar yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sisчилarning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, intellektual mulk obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar kiritiladi.

Metama'lumotlar uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1865/Asosiy-kapitalga-investitsiyalar.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1872/Iqtisodiy-faoliyat-turlari-boyicha-asosiy-kapitalga-ozlashtirilgan-investitsiyalar.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1867/Asosiy-kapitalga-xorijiy-investitsiya-va-kreditlar.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

D. Xidiraliyeva
71 203-80-00 (1163)

Manzil:

